
SHODLIK MAHALLASIDA MOHIR USTALAR TOMONIDAN SIFATLI MEBELLAR ISHLAB CHIQRILMOQDA

Toshloq tumanidagi Shodlik MFYda faoliyat yuritayotgan yosh tadbirkor Shuhratjon Komilovning mebel ustaxonasida turfa mebellar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. U asosan buyurtma orqali barcha turdagi mebel jihozlarini zamonaviy, bir-birini takrorlamaydigan qilib yasab berishga intiladi.

- Ayni kunda ishlab chiqarish tarmog'ini rivojlantirish, mahsulot turlarini ko'paytirish, sifatini yaxshilashga alohida e'tibor beryapmiz. Ishlab chiqarish ustaxonamizda asosan oilaviy mehnat qilamiz. Bundan tashqari 4 nafar yoshlarni ish bilan ta'minlaganmiz. Ularga ish ko'lamiga qarab maosh beriladi. Bu sohadan oilamizni o'rtacha oylik daromadi 30-40 millionni tashkil qiladi,-deydi tadbirkor Sh.Komilov.

- Tadbirkorga ko'mak berish uchun o'tgan yili 33 million so'm imtiyozli kredit ajratilgan. Buning evaziga qo'shimcha uskunalar sotib olib o'rnatgan hunarmandning ishlab chiqarish sifati ortib ish ko'lami yanada kengaydi,-deydi mahalla hokim yordamchisi Dilshodjon Boymatov.

2024-07-12 17:12:24